Abstract. The article analyzes the achievements attained as a result of reforms in Uzbekistan's agricultural sector, as well as scientific advancements widely introduced into the industry. It examines the increasing production volumes of agricultural products by clusters and highlights the growing role of the agricultural sector in the country's exports using statistical data.

Key words: agricultural sector, farming, household farming, employment, cluster, export.

Аннотация. В статье рассмотрены достижения, достигнутые в результате реформ в аграрном секторе экономики Узбекистана, а также научные достижения, широко внедряемые в отрасль. Проанализированы объемы производства сельскохозяйственной продукции по кластерам и возрастающая роль аграрного сектора в экспорте страны.

Ключевые слова: аграрный сектор, фермерское хозяйство, дехканское хозяйство, занятость населения, кластер, экспорт.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi tarmog'ining taraqqiyoti mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutib, ekologik toza mahsulotlar yetishtirish orqali qayta ishlash tizimining rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, qishloq aholisi uchun yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, bandlik darajasining oshishiga hamda aholi turmush farovonligining yuksalishiga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida yuz berayotgan global iqtisodiy inqirozlar va talab hajmining qisqarishi sharoitida, milliy iqtisodiyotimizni sifat jihatidan tarkibiy jihatdan yangilash, tarmoqlarni diversifikatsiya qilish, ko'p tarmoqli ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash zarurati kuchaymoqda. Bu orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, bandlikni ta'minlash, aholi daromadlari hamda hayot farovonligini oshirish uchun samarali va tizimli yo'nalishlar joriy etilmoqda.



Jahon miqyosida iqtisodiy beqarorlik va inflyatsion bosimlar kuzatilayotgan hozirgi davrda, qishloq xo'jaligi tarmog'ining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrar tarmoqning barqaror rivojlanishi aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini mustahkamlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Agrar sektor O'zbekiston iqtisodiyotining eng asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, u aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, qayta ishlash sanoati va xizmat ko'rsatish sohaslariga xomashyo yetkazib berish bilan birga, mamlakatning tashqi savdo jarayonlarida eksport salohiyatini barqaror ta'minlashda muhim o'rin egallaydi [1].

Aholi soni izchil o'sib borayotgan bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Global iqlim o'zgarishlari, yer va suv resurslari taqchilligi qishloq xo'jaligida qator murakkabliklarni yuzaga keltirayotgan bo'lsa-da, mamlakatimiz ushbu sohada sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Jumladan, 2025-yilda yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnadan ortiq paxta, 16 million tonnadan ziyod sabzavot va poliz mahsulotlari, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, hamda 15 million tonnadan ortiq go'sht va sut yetishtirildi. Oziq-ovqat sanoati bo'yicha

343 ta loyiha muvaffaqiyatli ishga tushirildi.

Mahalliyashtirish jarayonlarida ham katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, non, sut, go'sht, o'simlik yog'i, qandolat mahsulotlari va salqin ichimliklar ishlab chiqarish hajmini oshirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda qandolat mahsulotlari eksporti to'rt baravar oshib, 13 million AQSh dollariga yetdi. Xomashyo, qadoqlash va etiketkalash mahsulotlarining to'g'ridan to'g'ri olib kelinishi natijasida tannarx 20 foizga kamaydi, bu esa raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshirdi. Ushbu imtiyozlarning muddati 2025-yil

1-yanvarda tugaydi, ammo ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida mazkur muddatni yana ikki yilga uzaytirish taklifi ko'rib chiqilmoqda.

Yog'-moy sanoatida 408 ta yangi korxonalar faoliyat boshladi. Shu bilan birga, xomashyo yetishmovchiligi ayrim korxonalarining to'liq quvvat bilan ishlashiga to'sqinlik qilmoqda. Ammo, agar yog'-moy eksportiga ruxsat berilsa, ishlab chiqarish hajmi 120 ming tonnaga oshib, qo'shimcha ravishda 240 ming tonna ozuqa yem tayyorlanishi hisob-kitob qilingan. Bu esa tarmoq samaradorligini oshirishga, bandlikni kengaytirishga va eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.¹

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur sohada bir qator xorijiy olimlar — A. Adamchuk, A.S. Blyakhman,

S.A. Kuzmin, I.S. Maslova, Yu.G. Odegov, V.A. Pavlenkov, O.V. Romashov, G.G. Rudenko, G.E. Slezinger, A. Kibanov, A. Kotlyar, G. Avagyan, V. Plaksa, D. Markovich va boshqalar o'z ilmiy izlanishlari orqali munosib hissa qo'shganlar. Ularning tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi tarmog'ining samarali rivojlanishi, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari chuqur o'rganilgan.

Shuningdek, ushbu muammolarni o'rganishga o'zbekistonlik olimlardan

Q. Abdurahmonov, R. Ubaydullaeva, S. Abdullaev, Sh. Zaynutdinov, B. Murtazaev,

N. Tuxliev, X. Abulqosimov, D. Rahimova, O. Ata-Mirzaev, B. Umurzakov,

Sh. Xolmuminov, D. Ortiqova va boshqa tadqiqotchilar ham o'z ilmiy ishlari bilan katta hissa qo'shganlar.

Ularning ilmiy izlanishlarida O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish yo'nalishlari, ekologik toza mahsulotlar yetishtirish orqali qayta ishlash tizimini takomillashtirish hamda eksport salohiyatini oshirish masalalari ilmiy asosda yoritilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi tarmog'ining barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Bu jarayon nafaqat ichki bozorni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, balki tashqi bozorlarda milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, aholi bandligini mustahkamlash va hududlar iqtisodiy salohiyatini kengaytirish imkonini bermoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi tarmog'ida fermer xo'jaliklari, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ularning faoliyati agrar sohaning barqaror rivojlanishida, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda va aholining bandligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar paxtachilik, donchilik, meva-uzumchilik, sabzavot-polizchilik, chorvachilik, veterinariya va boshqa yo'nalishlarni yanada rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayonlarda yer, suv, mineral o'g'it va boshqa moddiy-

¹ <https://uzdaily.uz/uz/ozbekiston-prezidentiga-2025-yil-uchun-oziq-ovqat-sanoatini-rivojlantirish-rejalari-taqdim-etildi/>



texnika resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash, agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi 1-sonli majlis bayoni asosida, 2020-yil 10–12-may kunlari "O'zekspomarkaz"da o'tkazilgan "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar X Respublika yarmarkasi" doirasida tizimdagi ilmiy muassasalar olimlari tomonidan yaratilgan 95 ta innovatsion ishlanma namoyish etildi. Mazkur yarmarka jarayonida 15 ta ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari bilan fermer xo'jaliklari va boshqa buyurtmachilar o'rtasida 250 dan ortiq o'zaro manfaatli shartnomalar imzolandi. Ushbu shartnomalarning umumiy qiymati 3,7 milliard so'mni tashkil etdi.

Mazkur hamkorlik agrar sohada innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

2023-yil yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hamda ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi 317 781,6 milliard so'mni tashkil etdi. Ushbu natija mamlakat agrar sektorining iqtisodiy barqarorligini va ishlab chiqarish hajmining izchil o'sib borayotganini ko'rsatadi.

2019-yil yakunlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulot (YalM) tarkibida 19,7 foiz ulushni egallagan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 26,9 foizga yetgan. Shunday qilib, soha YalMning mutlaq o'sish sur'atiga 1,1 foiz punkt hajmida ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Agrar tarmoqda kuzatilgan bu o'sish sur'atlariga, avvalo, asosiy mahsulot turlarining ishlab chiqarish hajmining oshishi ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, go'sht ishlab chiqarish – 104,8 %, sabzavot – 104,1 %, kartoshka – 104,7 %, uzum – 105,5 %, hamda ovlangan baliq – 120,7 % darajasida o'sish qayd etilgan. Ushbu natijalar qishloq xo'jaligi tarmog'ida ishlab chiqarish samaradorligi, hosildorlik va mahsulot turlarining diversifikatsiyasi izchil oshib borayotganini tasdiqlaydi.

Hududlar kesimida esa eng yuqori o'sish Jizzax viloyatida (53,4 %), eng past ulush esa Navoiy viloyatida (15,0 %) kuzatilgan. Bu farq hududlar agrar salohiyatining tabiiy-iqlim sharoiti, resurslardan foydalanish darajasi va ishlab chiqarish ixtisoslashuviga bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, barcha viloyatlarda ijobiy o'sish tendensiyasi qayd etilgan bo'lib, bu agrar siyosatning samaradorligini va hududiy rivojlanishning muvozanatli yo'nalishda kechayotganini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida yaratilgan mahsulotlar hajmi va ekin maydonlarining yillar davomida o'zgarishi [3]

Ko'rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Ekin maydoni, ming gektar	3778,3	3647,5	3708,4	3694,2	3396,1	3260,7
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari (joriy narxlarda), mlrd so'm	1387,2	5978,3	30856,7	99604,6	250250,6	303415,5

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ekin maydonlari hajmi yillar davomida biroz qisqargan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi izchil o'sib bormoqda. Bu holat agrar sohada yer resurslaridan samarali foydalanish, hosildorlikning oshishi, hamda zamonaviy agrotexnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi natijasi ekanligini ko'rsatadi.

2024-yil yakunlariga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi tarmog'ining umumiy tarkibida 96,7 foiz ulushni tashkil etgan. Bu esa sohada xususiy sektor faolligi va raqobatbardosh ishlab chiqarish tizimining shakllanib borayotganini anglatadi.

Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkichlar Jizzax (99,1 %), Qashqadaryo (99,1 %), Buxoro (98,1 %) va Xorazm (98,1 %) viloyatlarida qayd etilgan. Bu viloyatlarda fermer xo'jaliklari, klasterlar va xususiy korxonalar faoliyatining samarali yo'lga qo'yilgani, investitsion muhitning yaxshilangani, hamda ishlab chiqarish infratuzilmasining modernizatsiyalashgani bilan izohlanadi (2-jadval).



2-jadval. O'zbekiston Respublikasi hududlari miqyosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'tgan yilga nisbatan o'sish dinamikasi (foizda) [2]

Hududlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Jami	103,1	105,4	106,3	106,1	102,7	103,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	65,6	104,6	121,3	109,8	102,3	104,2
Andijon viloyati	110,2	104,7	108,0	106,3	101,1	104,5
Buxoro viloyati	106,3	109,2	107,6	107,1	101,9	104,7
Jizzax viloyati	100,1	104	106,4	106,7	102,7	104,2
Qashqadaryo viloyati	89,4	109,6	107,0	106,1	103,7	101,3
Navoiy viloyati	105,0	107,5	105,9	106,6	103,3	104,4
Namangan viloyati	111,5	103,1	105,8	106,3	104,0	107,0
Samarqand viloyati	104,8	103,9	107,0	107,1	102,5	103,1
Surxondaryo viloyati	106,7	100,5	105,2	106,3	105,3	104,2
Sirdaryo viloyati	101,9	112,9	105,6	105,5	101,8	103,8
Toshkent viloyati	114,9	103,8	102,9	103,3	100,1	104,1
Farg'ona viloyati	113,5	107,2	106,1	105,7	104,9	103,2
Xorazm viloyati	82,8	103,2	102,5	105,5	101,7	102,9

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish tarkibida dehqonchilik 49,9 foiz, chorvachilik esa 50,1 foiz ulushni tashkil etadi. Ushbu mutanosiblik sohada ikki yo'nalishning muvozanatli rivojlanib borayotganini va ishlab chiqarishning diversifikatsiya darajasi yuqori ekanini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, Andijon viloyati dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha eng yuqori ulushga ega bo'lib, bu yerda dehqonchilik 61,9 foizni, chorvachilik esa 38,1 foizni tashkil etadi. Aksincha, Navoiy viloyatida chorvachilik tarmog'i ustunlik qilmoqda — bu hududda dehqonchilik 34,2 foiz, chorvachilik esa 65,8 foiz ulushni tashkil etadi. Bu holat hududlarning tabiiy-iqlim sharoiti, iqtisodiy ixtisoslashuvi va resurslardan foydalanish imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Mamlakat miqyosida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari xo'jalik toifalari bo'yicha quyidagicha taqsimlangan: dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari — 65,9 foiz, fermer xo'jaliklari — 29,3 foiz, va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar — 4,8 foiz. Ushbu ko'rsatkichlar dehqon xo'jaliklarining mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ustuvor o'rnini, fermer xo'jaliklarining esa ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyatini oshirishdagi muhim rolini yaqqol namoyon etadi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlar dinamikasi (ming tonnada)

Mahsulot turi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Don va dukkakli ekinlar	4 101,4	6 540,9	7 504,3	8 173,5	7 636,0	7 634,6
Kartoshka	731,1	924,2	1 694,8	2 586,8	3 143,8	3 285,6
Sabzavotlar – jami	2 644,7	3 517,5	6 262,4	9 390,0	10 431,4	10 850,2
Oziqbop poliz ekinlari	451,4	615,3	1 182,4	1 853,6	2 134,4	2 285,3
Meva va rezavorlar	790,9	949,3	1 676,3	2 467,9	2 812,6	2 852,6
Uzum	624,2	641,6	979,3	1 518,2	1 606,9	1 695,3
So'yish uchun mol va parranda (tirik vaznda)	841,8	1 061,5	1 461,4	2 033,4	2 519,6	2 635,1
Sut	3 632,5	4 554,9	6 169,0	9 027,8	10 976,9	11 274,2
Olingan tuxum (mln dona)	1 254,4	1 966,7	3 061,2	5 535,4	7 781,2	7 788,4
Asal (tonna)	2 685,0	2 115,7	3 171,9	10157,0	13 357,8	14 066,9
Pilla (tonna)	16479,0	16211,0	25 151,8	26293,0	20 941,9	22 769,9



Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmi yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa sohada ishlab chiqarish samaradorligi ortib borayotganini, agrar sektorning iqtisodiyotdagi yetakchi o'rnini mustahkamlab borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining haqiqiy "drayveri" hisoblangan agrar sohada 2020-yilda iqtisodiyotda band bo'lgan ishchi kuchining qariyb 27 foizi faoliyat yuritgan, 2021-yilda esa yalpi ichki mahsulot (YalM) tarkibida ushbu sektorning ulushi 25 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi muhim o'rnini yaqqol ifodalaydi.

2021-yilda O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi joriy baholarda 303,4 trillion so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 2020-yilga nisbatan 103,9 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2019-yilda YalMning 26,9 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmoqlarida yaratilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 25,0 foizni tashkil etgan. Biroq bu pasayish miqdoriy ko'rsatkich jihatidan emas, balki boshqa tarmoqlarda yuqori o'sish dinamikasi kuzatilganligi bilan izohlanadi.

Mazkur davrda mamlakat YalM hajmi 1,91 martaga oshgan bo'lsa, agrar sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) 1,62 martaga o'sgan. Shu tariqa, iqtisodiyotning ilgirilash koeffitsienti 1,179 martani yoki 117,9 foizni (1,91 : 1,62) tashkil etdi. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining izchil barqarorlik sharoitida o'sib borayotganini ko'rsatadi.

2019–2024-yillar davomida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining qo'shimcha o'sish sur'ati qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 61,9 foizni, qishloq xo'jaligining o'zida esa 62,3 foizni tashkil etdi. Ushbu o'sishning agrar soha mahsulotlari tarkibidagi hissasi 94,2–96,6 foiz oralig'ida saqlanib kelmoqda.

Tahlil etilayotgan davrda fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 33,7 foizga (74 946,1 : 56 060,7) ko'paygan. 2024-yilda bu ko'rsatkich joriy baholarda 88 900,7 milliard so'mni tashkil etgan bo'lib, barcha toifadagi xo'jaliklar ulushida 29,3 foiz hissani egallagan. Bu 2019-yilga nisbatan 7 foiz bandga pasayish sifatida qayd etilgan bo'lsa-da, bu holat salbiy emas, balki fermer xo'jaliklarining ko'p tarmoqli faoliyatga o'tishi natijasida qayta ishlash sanoati mahsulotlari hajmining ortishi bilan izohlanadi.

Demak, fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish yo'nalishlarini kengaytirishi, agrosanoat klasterlari bilan integratsiyani kuchaytirishi va tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tishi mamlakat agrar sohasida yuqori qo'shilgan qiymat yaratishning muhim omiliga aylanmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotda qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda (4-jadval).

4-jadval. O'zbekiston Respublikasida fermer xo'jaliklari tomonidan yaratilgan mahsulot va qo'shilgan qiymat hajmi dinamikasi

Yillar	Fermer xo'jaliklari mahsuloti hajmi, mlrd so'm		Qishloq xo'jaligi mahsulotida fermer xo'jaliklari hissasi, %	Qishloq xo'jaligida yaratilgan qo'shilgan qiymat, mlrd so'm		Fermer xo'jaliklarida yaratilgan qo'shilgan qiymat, mlrd so'm	
	Joriy narxda	2020-yil narxda		Joriy narxda	2020-yil narxda	Joriy narxda	2020-yil narxda
2013	11201,0	56060,7	36,3	20018,7	92580,6	7266,8	32398,2
2014	15714,2	57854,6	34,7	28880,4	98320,6	10021,5	33435,0
2015	18397,5	61441,6	33,0	35180,9	105399,7	11609,7	35508,0
2016	21325,7	64145,0	32,1	40803,4	112356,0	13097,9	37070,3
2017	24620,1	66197,7	30,1	51522,3	119434,5	15508,2	38256,6
2018	30620,8	68514,6	30,7	62351,8	126720,0	19142,0	39595,5
2019	34271,5	70227,4	29,7	72236,2	134703,3	21454,2	40585,4
2020	43358,1	64960,3	29,3	87344,5	136050,4	25591,9	37541,5
2021	48667,0	60478,1	26,0	109227,9	136322,5	28399,2	34951,2
2022	60394,7	66828,3	27,9	125615,8	140821,1	35046,8	38621,0
2023	70570,7	70570,7	28,2	144623,3	144623,3	40783,8	40783,8
2024	88900,7	74946,1	29,3	174709,6	149829,7	51015,2	42823,0



Qishloq xo'jaligi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoatining esa xomashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan birga, mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlashning eng istiqbolli manbalaridan biri sanaladi. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavot mahsulotlari eksporti jami eksport hajmining 6,7 foizini tashkil etgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, bir gektar maydonda yetishtirilgan paxta xomashyosiga nisbatan uzumdan 7 barobar, gilosdan 6 barobar, yong'oqdan esa 5 barobar ko'p daromad olish imkoniyati mavjud.

Qayd etish joizki, bugungi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligi bazasi yuqori qiymatli meva-sabzavot ekinlarini ko'paytirish orqali diversifikatsiya qilinmoqda. Bu ekinlar nafaqat yuqori daromad keltiradi, balki yaxshi haq to'lanadigan mavsumiy ish o'rinlarini yaratish imkonini ham beradi. 2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti 2021-yilga nisbatan 1,8 martaga oshib, 1 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Shu bilan birga, eksport geografiyasi 43 tadan 77 ta davlatga kengaygan.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida agrosanoat klasterlari tizimi izchil joriy etilmoqda. Hozirda paxta-to'qimachilik, meva-sabzavot, chorvachilik, g'allachilik, sholichilik va pillachilik klasterlari faoliyat yuritmoqda. Jumladan, bugungi kunga kelib, mamlakatimizda 97 ta paxta-to'qimachilik, 149 ta meva-sabzavotchilik, 65 ta g'allachilik, 35 ta sholichilik, 7 ta dorivor o'simliklar yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar hamda 11 ta paxta-to'qimachilik kooperatsiyalari tashkil etilgan.

Shuningdek, qoramolchilik yo'nalishida 34 ta, parrandachilikda 10 ta, baliqchilik tarmog'ida 36 ta, asalarichilik yo'nalishida esa 15 ta fermer xo'jaligi klaster tizimida faoliyat yuritmoqda. So'nggi ikki yil ichida pillachilik sohasida 62 ta klaster tashkil etilib, ular tomonidan 600 milliard so'mga yaqin mahsulot ishlab chiqarilgan.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, ularning o'rniga yangi intensiv bog'lar va tokzorlar barpo etildi, shuningdek, sabzavot va poliz ekinlari maydonlari kengaytirildi. Bunday keng ko'lamli islohotlar o'z amaliy natijalarini bera boshladi. 2024-yilda 2023-yilga nisbatan poliz mahsulotlari hajmi 6,9 foizga, kartoshka 4,7 foizga, sabzavotlar 4,1 foizga, meva va rezavorlar 1,4 foizga, uzum esa 5,5 foizga ko'p yetishtirildi.

Agrar sohada yaqin istiqbolga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining 2020–2030-yillarga mo'ljallangan qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi sohaning barqaror rivojlanishida muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu strategiyaning amalga oshirilishi natijasida 2024-yilda agrar sektorda mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 2023-yilga nisbatan 1,1 foiz bandga jadallashib, 4,0 foizni tashkil etdi. Bu esa joriy narxlarda 317,8 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilganini anglatadi. Natijada, mamlakat yalpi qo'shilgan qiymatining 26,9 foizi aynan agrar sohada yaratilgan.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida sifat jihatidan yangi bosqichga o'tildi. Qishloq joylarda ko'p ukladli xo'jalik shakli shakllandi, fermer xo'jaliklari ko'p tarmoqli faoliyat yurituvchi subyektlar sifatida iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda klaster tizimini rivojlantirish agrar soha raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim omilga aylangan (5-jadval).

5-jadval. O'zbekiston Respublikasi meva-sabzavot klasterlarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (tonnada) [2]

№	Hududlar	Yetishtirilgan jami hosil, tonna	Shundan					
			Ichki iste'mol uchun, tonna	Salmog'i, %	Qayta ishlash uchun, tonna	Salmog'i, %	Eksport uchun, tonna	Salmog'i, %
1.	Samarqand viloyati	317699	68337	21,5	199105	62,7	50257	15,8
2.	Andijon viloyati	236442	202735	85,7	6101	2,6	27606	11,7
3.	Toshkent viloyati	206722	85640	41,4	78042	37,8	43040	20,8
4.	Farg'ona viloyati	170714	99636	58,4	19755	11,6	51323	30,1
5.	Namangan viloyati	142019	42412	29,9	92642	65,2	6965	4,9
6.	Sirdaryo viloyati	38717	16198	41,8	8141	21,0	14378	37,1
7.	Jizzax viloyati	32777	29141	88,9	1924	5,9	1712	5,2
8.	Xorazm viloyati	26780	1900	7,1	13800	51,5	11080	41,4



9.	Buxoro viloyati	19450	1300	6,7	12700	65,3	5450	28,0
10.	Navoiy viloyati	16536	8930	54,0	5546	33,5	2060	12,5
11.	Surxondaryo viloyati	16506	5996	26,3	630	3,8	9880	59,9
12.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	15602	2600	16,7	200	1,3	12802	82,1
13.	Qashqadaryo viloyati	11390	1655	14,5	4120	36,2	5615	49,3
Jami		1251354	566480	45,3	442706	35,4	242168	19,4

Yuqoridagi 5-jadval ma'lumotlariga ko'ra, viloyatlar kesimida meva-sabzavotchilik rivojlangan hududlarda meva-sabzavot maydonlarining klasterlar bilan qamrab olinishi 20,4–62,1 foiz oralig'ida shakllangan. Bu holat klaster tizimining hududlar kesimidagi izchil joriy etilayotganini, shuningdek, meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash zanjirining mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

Respublikamizda 2020-yilda yetishtirilgan 1 million 251 ming 354 tonna meva-sabzavot mahsulotining 45,5 foizi ichki iste'mol bozoriga, 35,4 foizi qayta ishlashga, 19,4 foizi esa eksportga yo'naltirilgan. Ushbu raqamlar ichki bozorni to'liq ta'minlash, qayta ishlash hajmini kengaytirish va tashqi bozorlarga chiqish salohiyatini oshirish borasidagi siyosatning samarali amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mamlakat tomonidan 1,0 milliard AQSh dollariga teng qiymatdagi 1,5 million tonna meva va sabzavot mahsulotlari eksport qilingan. Eksportning asosiy ulushi Rossiya Federatsiyasi (\$255,4 mln.), Qozog'iston (\$251,4 mln.), Qirg'iziston (\$181,1 mln.) va Pokiston (\$75,5 mln.) davlatlariga to'g'ri kelgan.

Hududlar miqyosida esa Samarqand viloyati eksport hajmi bo'yicha yetakchi o'rinni egallagan. Jumladan, 2022-yilda viloyatda 144,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilinib, umumiy qiymati 113,8 million AQSh dollarini tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan 46,7 million dollarlik qisqarishni qayd etgan bo'lsa-da, bu holat bozor kon'yunkturasi o'zgarishi, logistika xarajatlarining oshishi va tashqi bozorlar geografiasining diversifikatsiyalashuvi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, eksportning sifat tarkibi yaxshilanib, yuqori qiymatli va ekologik toza mahsulotlar ulushi ortib borganini ta'kidlash lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i haqiqiy ma'noda drayver tarmoq sifatida namoyon bo'lib, uning hozirgi kunda tutgan o'рни va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda kuzatilgan global pandemiya jarayonlari sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshirgan. Shu boisdan, mamlakatimizda agrar sohada bir qator ijobiy islohotlarni amalga oshirish, aholiga yetkazib berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmini oshirish hamda ularning sifat ko'rsatkichlarini yanada takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqsadlarga erishish uchun sohada ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini shakllantirish, yuqori qo'shilgan qiymat zanjirlarini yaratish, kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, bozor mexanizmlarini keng joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash hamda ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish zarurdir. Bu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki qishloq joylarda bandlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Shuningdek, istiqbolda qishloq xo'jaligi tarmog'ida tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun maqsadli davlat dasturlarini amalga oshirish va ularni soha rivoji bilan uyg'unlashtirish, yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarni barpo etish hamda ularning samarali faoliyatini rag'batlantirish, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta ishlash sohasida zamonaviy korxonalar tashkil etish, ichki bozorni mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'liq ta'minlash, eksport geografiasini kengaytirish hamda xorijiy bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ulushini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarning tizimli amalga oshirilishi O'zbekiston agrar sektorining barqaror rivojlanishiga, resurslardan samarali foydalanishga, raqamli agrotexnologiyalarni keng joriy etishga hamda eng asosiysi, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga bayram tabrigi. — <https://president.uz/uz/lists/view/4009>.
2. Tyurgo A. Izbrannyye ekonomicheskie proizvedeniya. — M., 2021. — S. 17.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrda "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. — Lex.uz.



4. Muxitdinova U.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida meva-sabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref. — T.: 2020. — B. 36.
5. Umurzaqov U.P. Puti povыsheniya effektivnosti ispolzovaniya resursnogo potentsiala agrarnogo sektora ekonomiki (na materialax Respubliki Uzbekistan). Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. — Toshkent: 2023. — 43 b.
6. www.stat.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
